

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» FANIDAN

**«MILLIY RUH VA MILLIY TARBIYA»
MAVZUSIDAGI**

REFERAT

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi N.Haydarova

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdumannotov

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ____ maydagi majlisida himoya qilindi va
_____ foizga baholandi.

Komissiya raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....4

ASOSIY QISM.....6

1. Mustaqillik va milliy tarbiya
2. Milliy qadriyatlar asosida milliy o'zlikni anglashni tarkib toptirish yo'llari
3. Bosnlang'icn sinf o'quvcnilarida milliy g'ururni singdirisnning snakl va vositalari

XULOSA30

ADABIYOTLAR RO'YXATI.....33

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda kelajak sari ildam qadamlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunga dalil sifatida O'zbekistonning jahon hamjamiyati o'rtasidagi munosib o'rne, mamlakatdagi turli sohalar bo'yicha o'zgarishlar, xalqning o'zligini anglay boshlagani, yoshlar faolligining oshganligida ko'rish mumkin. Lekin, hamma masalalar hali hal qilindi degan gap emas, chunki mustaqil davlat moziy o'lchovlari bo'yicha kelajakka ilk qadamlarini qo'ymoqda.

Dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri hisoblangan o'zbek xalqi Yer kurrasi sivilizasiyasiga o'z munosib hissasini qo'shgan. Ushbu masala uning o'ziga xos va o'ziga mos milliy tarbiya mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Lekin, salkam 150 yillik mustabidlik davri uning dunyo hamjamiyati orasidagi mavqeining pasayishi, ko'krak kerib turgan qomatining ancha bukchayishi, soxta tarkib toptirilgan «sovet» xalqining bir bo'lagiga aylanishiga olib keldi.

Mustaqillik o'zbek xalqining azaliy orzularini ruyobga chiqardi, unga tenglar ichida teng ekanligini namoyon etish imkoniyatini yaratdi. Xo'rlangan, tahqirlangan milliylik, milliy g'urur, ozodlik, o'zligini anglash hissi o'z qaddi-qomatini tiklash sharafiga muyassar bo'ldi.

Ammo mustabid tuzum davrida yo'l qo'yilgan iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, mustaqil davlatni iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish, xalqning haqiqiy ma'naviyatini qayta tiklash hamda zamon talablari asosida uni yo'lga qo'yish katta kuch va aqlni talab qiladi.

Xalqning keng qatlamlarini mustaqillik mafkurasi asosida shakllantirish, sobiq sho'ro tuzumining kommunistik mafkurasini ular ongidan siqib chiqarish yo'nalishida davlat darajasida talay farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori(1998 yil 24 iyul)da ta'kidlanganidek, «Milliy istiqlol mafkurasi mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga, oliyjanoblik tuyg'ularini chuqurlashtirishga, shonli o'tmishga hurmat va porloq kelajakka ishonch hislarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda».

Ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirish uchun o'zbek xalqi qadriyati hisoblangan milliy tarbiyani zamon ruhiyati bilan boyitgan holda yo'lga qo'yish lozim. Buning uchun esa qadimiy va o'ta samarali hisoblangan o'zbek milliy tarbiyasining mohiyati, mazmuni, shakl va vositalari, uslubiyati, tarixiy ildizlari haqida ma'lum bilimga ega bo'lish lozim.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbek xalqi milliy tarbiya tizimining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda milliy ruh va milliy g'ururni shakllantirishning pedagogik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti: O'quvchilarni o'zbek xalqining milliy tarbiya tizimi asosida milliy g'ururni shakllantirish jarayoni

Tadqiqot predmeti: O'quvchilarni o'zbek xalqining milliy tarbiya tizimi asosida milliy g'ururni shakllantirish mazmuni va yo'llari

Tadqiqot vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy nazariy manbalar, ilmiy va o'quv adabiyotlar, darsliklar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini tahliliy o'rganish.
2. Milliy qadriyatlar asosida milliy o'zlikni anglashni tarkib toptirish yo'llari
3. Bosnlang'icn sinf o'quvchilarida milliy g'ururni singdirisnning snakl va vositalari

ASOSIY QISM

1. Mustaqillik va milliy tarbiya

O'zbekiston qadimiy Turon, Movarounnahr, Turkistonning tarkibiy bir qismi sifatida 1991 yilda mustaqillika erishdi. O'zbek xalqining bir yarim asrlik orzusi amalga oshdi. Mustaqillik, ozodlik, milliy ma'naviyat, Vatan, millat va milliy g'urur kabi tushunchalar ham ozodlikka chiqdi. Ozodlik mustaqilliksiz, Vatansiz milliy g'urur, milliy ma'naviyatsiz millatni tasavvur etish qiyin. Sobiq sho'ro tuzumi davrida o'zbeklar bunday buyuk ne'matlardan mahrum edi.

O'zbekiston Respublikasining suveren, demokratik, huquqiy, dunyoviy, millat sifatida tarkib topishi uning oldiga yechilishi lozim bo'lgan muhim vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Ular siyosiy davlat qurilishi va boshqaruv, iqtisodiy, harbiy masalalar bo'lib, ularning to'g'ri hal qilinishi mustaqil davlat hamda millat kelajagini belgilab beradi.

Mustaqillik, O'zbekiston davlatining kelajagi sobiq sho'ro tarbiya tizimidagi yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf qilish va hozirgi davrgacha o'zbek xalqining hosil qilingan progressiv tarbiyaviy tajribalariga tayangan holda, mustaqil Vatan talablariga mos ravishda, ijobiy tarbiyalangan komil insonni tarkib toptirish masalasini hal qilishni muhim vazifa qilib qo'ydi.

Mustaqillik sharofati orqali milliy tarbiya davlatning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bir yarim asr toptalgan milliylik, o'zlikni anglash va milliy g'urur, diniy axloqiyotni tiklash hamda rivojlantirish imkoniyati yaratildi. Lekin tarbiya jarayoni o'ta mashaqqatli, uzoqqa cho'ziladigan va qiyin jarayondir. Shaxsda ma'lum bir ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish uchun oylab, yillab ta'sir ko'rsatish lozim bo'ladi. Shaxsda esa tarkib toptirilgan tarbiya natijasini aniqlash, o'lchash va amalda sinash qiyin masalalardan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim emas.

Sobiq sho'ro tarbiyasi yo'nalishi, mazmuni esa o'zbek xalqi tarbiyasini falokat yoqasiga olib kelib qo'ygan va unda darz paydo bo'lgan edi. Ushbu holat, ayniqsa, shahar muhitida ko'proq sezilib, qimloqda tarbiyadagi milliylik

xususiyatlari ko'proq saqlangan edi. Lekin, umuman olganda qadimiy xalq hisoblangan o'zbeklar totalitar sho'ro tuzumining mafkuraviy ta'ziqi ta'siri, qopqog'i ostida bo'lgan bo'lsa-da, o'zining tub milliy tarbiya asosini ma'lum holatda saqlay oldi. Ushbu asosni mustahkamlash, ildizlarni azaliy, baquvvat holga keltirish mustaqil mamlakatning dolzarb muammolaridan biri sifatida yechimini kutib turardi. Ushbu masalalar quyidagilardan iborat edi:

- Milliy ongni qayta tiklash;
- Milliy qadriyatlarni tiklash;
- Ijobiy mahalla jamoatchilik fikrini azaliy holga keltirish va rivojlantirish;
- Tarixni haqqoniy yoritish va shu asosda yosh avlodni tarbiyalash;
- Milliy g'ururni, o'z-o'zini anglashni tarkib toptirish;
- Oilaning milliy tarbiya o'chog'i, muqaddasligini davlat siyosati darajasiga ko'tarish;
- To'liq ma'noda Vatan bilan faxrlanish, haqiqiy vatanparvarlik hissini shakllantirish;
- Ma'naviy hayotda islom dinining o'rni va hurmatini tiklash hamda uning axloqiyotidan komil insonni tarkib toptirishda oqilona foydalanish;
- Ta'lim mazmuniga milliy madaniy-tarixiy merosni kiritish va milliy ruhni yaratish;
- Haqiqiy insonparvarni tarkib toptirish, faqat o'z millatiga mansub emas, balki shu bilan birgalikda, boshqa millat vakillariga ham do'stona munosabatda bo'lishni shakllantirish;
- Milliy til va adabiyotni shaxs tarbiyasidagi mohiyatini oshirish;
- Ta'lim va tarbiya tizimini millat kelajagi nuqtai nazarida qayta qurish;
- Sog'lom turmush tarzi xususiyatlarini shakllantirish;
- Yarim Sharq va yarim G'arb tarbiya tizimini haqiqiy milliy tarbiyaga aylantirish;
- Ijtimoiy-milliy tarbiya maskani hisoblangan mahallaning rolini o'z o'rniga qo'yish.

Ushbularni amalga oshirish juda qiyin va murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston aholisining o'rta, katta yoshdagi qismlari ma'naviyati, ruhiyati sobiq sho'ro tizimi davrida tarkib topgan va ular sobiq sovetlar ideologiyasi ruhiyatida fikrlaydigan hamda o'sha ruhda faoliyat ko'rsatayotgan insonlar edi. Ular to'liq shakllanib bo'lgan va ularning ma'naviyati, ruhiyatini yangi yo'nalishga boshqarib yuborish, yangi ruhiy – tarbiyaviy «portlash» jarayonini sodir bo'lishini kutish katta kuch, aqlni talab etardi.

Ziyolilar ham sho'rolar mafkurasi qoliplari asosida tarkib toptirilgan, sho'ro siyosatining faol targ'ibotchilari va uni amalga oshiruvchilari edi. Ularning ruhiyati, mafkurasini mustaqillik talablari asosida qayta tarkib toptirish esa, juda mas'uliyatli, o'ta mashaqqatli va qiyin jarayon edi. Chunki ularning ongini qayta shakllantirgan holda, ular orqali yoshlarni tarbiyalash masalasi ko'ndalang turar edi. Ushbu o'ta muhim masalani hal qilish uchun oliy darajadagi yangi mafkura lozim va u xalqning ma'naviyati, ruhiyatiga mos keladigan, ong ozuqasi sifatida hazm qilinadigan bo'lishi lozim edi. Ushbu masala haqida Prezident I.Karimov «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishiga qodir g'oyani men kelajak mafkurasi deb bilaman», - deb alohida ta'kidladi[6;11].

Ushbu yo'nalishda hal qilinishi lozim bo'lgan eng dolzarb masala – xalqning milliy ma'naviyatini tarkib toptirish edi. Uning yechimini topishda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi» (1994 yil 23 aprel) haqidagi Farmonning ahamiyati juda katta bo'ldi.

Milliy tarbiya mazmuni o'zbek xalqi tomonidan minglab yillar mobaynida yaratilgan. Demak, u birinchi navbatda xalqning tashkil topishi, rivojlanish tarixi bilan bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, milliy tarbiyani asl

mohiyatini ochib berish o'zbek xalqining tarixini to'g'ri, haqqoniy yoritish, baholash bilan bog'liq. Mustaqillik esa bunday imkoniyatni yaratdi.

2. Milliy qadriyatlar asosida milliy o'zlikni anglashni tarkib toptirish yo'llari

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, ta'lim sohasida tubdan o'zgarishlar ro'y bermoqda. 1997 yil ta'lim sohasida ulkan islohotlarni boshlash yili bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgust oyidagi IX – sessiyasida ikkita yirik xujjat «Ta'lim - tarbiyada»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan islox qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdir. Ta'lim tizimini islox qilish davlat nazoratidadir. Shu nuqtai – nazardan qabul qilingan umummilliy maktab dasturi ham hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda rivojlantirilmoqda va hayotga tadbiq etilmoqda.

Yoshlik – inson hayotning eng ma'suliyatli davri, chunki har bir inson aynan shu davrda oyoqqa turish, shakllanish, jismoniy va ijtimoiy jihatdan balog'atga yetish jarayonini boshidan kechiradi. Bu davrda yoshlarning ma'naviy dunyosi va axloqiy qiyofasi, shaxsiy didi, xavasi, qiziqishi, muxabbat tuyg'usi bir necha bor o'zgaradi. Agar jamiyat va oila tomonidan yoshlarning xayotini to'g'ri izga solinsa, ularda o'z – o'zini anglash, xayotning xilma – xil mrakkabliklarini xis etish, ayniqsa, bilim olish va xayotiy tajriba orttirish davri xisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiy etishida milliy sadoqatni shakllantirish, avvalo, mustaqillikni mustaxkamlash, sog'lom avlodni milliy ruxda shakllantirish va voyaga yetkazish muxim ahamiyatga ega.

Xalqimizning o'ziga xos xususiyatlarini va uning yuksak axloqiy vazifalari milliy qadriyatlarning o'zagini tashkil qiladi. Biz yosh avlodni milliy qadriyatlar vositasida, milliy ruxda tarbiyalashni o'z oldimizga vazifa qilib olganmiz.

Yoshlarga ta'lim – tarbiya berish jarayoni esa oshlang'ich sinfdan boshlanadi.

«Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Ularning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak?

Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak».

Ushbu fikrlar ta'lim – tarbiya tizimiga qo'yilgan davlat buyurtmasining yaqqol ifodasidir. Yoshlar ta'lim – tarbiyasida milliy – ma'naviy qoidalarining aks etishi, xalqimizning asriy arzisidir. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish – davlat siyosatining ustivor yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab – quvvatlash to'g'risidagi farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustivorligini yana bir kara tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ilhom Karimov birinchi chaqiruv O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XVI sessiyasidagi nutqida,

«Erkin fuqaro ma'naviyatini ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardir. Boshqacha aytganda biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqyea – xodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, Ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jixatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerak – ki, hayotimizning boshqa sohalaridagi axvol amalga oshirilayotgan isloxotlarimizning samaradorligi, avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy me'rosimizning keng o'rganilishi, an'alarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir», - deb ta'idladi.

Respublikamiz xukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi.

Maktablarda, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida «ma'naviyat asoslari», «milliy istiqlol g'oyasi», «vatan tuyg'usi» kabi yangi fanlar kiritildi, tariximiz yangidan yoritildi. Mustaqilligimiz uchun kurashgan, qatl qilingan ajdodlarimiz xotirasi tiklandi. Yoshlar ongida milliy g'oya, milliy mafkura shakllantir boshlandi.

Prezident I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1 – sessiyasida jamiyatimizda ma'naviyat sohaida amalga oshirilayotgan islohotlarga yana bir bor to'xtalib,

«Eng asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy xayotimizdagi o'rnini va xurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarda boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir», - deb ta'kidlaganlar.

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurti tanitadi, mashhur qiladi. Ma'naviyat esa tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz ma'naviyatining bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir. Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning «Tarbiya – biz uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi. Zotan xalqni xalq millatini millat qilib ko'rsatuvchi rango – rang narsa va xodisalar tarbiya tufaylidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, milliy ong va milliy tafakkurni shakllantirish, ma'naviyat va ma'rifatni yuksak pog'onaga ko'tarish bugungi kun talabidir. Bu muxim muammolar faqat tarbiya tufayli xalq qilinishi mumkin. Darxaqiqat, tarbiya xikmati – istiqlol qudratidir. Istiqlol qudrati deganda inson aql zakovatining yuksakligini, shu insonlar yashayotgan jamiyat va davlatning ravnaqi, jaxon miqyosidagi obro' – e'tiborini anglamoq lozim. Bu ulug'vorlikka faqat tarbiya tufayli erishiladi. Xuddi shuning uchun vjdodlarimiz birinchi galda tarbiyaga juda kata axamiyat berishgan. Tarbiya deganda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi turli – tuman muomala – munosabatlarni, faoliyatlarni, say – xarakatlarni, o'zaro ta'sirini tushuntirmoq lozim. Inson

ma'naviyati va ma'rifati aql zakovoti, yuksak axloq – odobi, serqirrali iqtidori va salohiyati, diyonati va jasorati hamda shu kabilar tarbiya maxsulidir.

Tarbishunos Safo Ochil aytganidek, «inson asosan, ikki yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin: birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatish, shuningdek, donolar fikrlari, o'g'itlari va asarlarini o'qish orqali; inson o'zining fikrlashi, odamlar xatti – xarakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi – tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin».

Demak, tarbiyachi deganda, faqatgina ota – ona, bolalar bog'chalari tarbiyachilari yoki maktab o'qituvchi – tarbiyachilari emas, balki qo'ni – qo'shnilar, qishloq, maxala axli butun jamiyatchilik ajdodlarimiz, ularning asarlari ham tushuniladi.

O'tmish allomalar, avlod – ajdodlardan faxrlanish, ular me'rosini mukammal o'rganish milliy tarbiyadan boshlanadi. Demak, tarbiya xikmatiga istiqbol qudrati sifatida qaralmog'i lozim. Darxaqiqat, tarbiya milliy istiqbol va uning nurli istiqboli uchun misli yo'q kuch qudratdir. Inson ongi va shuuriga, ruhi joniga e'tiqod, insoniy burch, adolatparvarlik, insonparvarlik, mexr – oqibar, do'stlik, sadoqat, o'zbekona xayot, iffat singari odob tuyg'ulari tarbiya orqali singdiriladi.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analariga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalga joriy etishdir.

So'z va ish birligi bilan bolalarda milliylik va vatanparvarlik tuyog'ularni tarbiyalash davlatimiz mustaqilligi va shakllanish jarayonining muxim jihatidir. O'z xalqiga uning an'analariga, tili va madaniyatiga muxabbat va xurmatini tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini hamjamiyatidagi davlat sifatida idrok qiluvchi xaqiqiy insonni o'z vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, «Shu aziz Vatan barchamizniki. Uni baxt – saodati, yorug' istig'boli, farovon

kelajagi uchun yashash, kurashish kerak bo'lsa, jonni fido qilish, shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir».

Vatan kelajagi, xalqning baxt – saodati uchun milliy g'ururi yuksak inson kurashadi. Milliy g'urur esa, milliy o'zlikni anglash bilan bevosita bog'liq. Milliy o'zlikni anglash inson taqdrida juda katta rol o'ynaydi. Milliy o'zlikni anglash esa qadriyatlarning o'rni beqiyos kattadir. Milliy o'zlikni anglash tushunchasining tarkibiy qismlariga dastlab quyidagilar kirishi belgilangan:

1. Millat (etnos)ga mansubligini anglash, milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib yetish.
2. Mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rnini bilish.
3. Milliy qadriyatlarga sadoqat.
4. Millatning extiyojlari va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo'llarini bilish.
5. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish.
6. Vatanparvarlik va boshqalar.

Biz yuqorilarda aytib o'tganimizdek insoniyatning paydo bo'lishi bilan asta – sekin uning tili, urf – odatlari, ana'analari, din, madanyati, ezgulikni ifoda etuvchi axloq – odob normalari ham vujudga kela boshlagan.

Ularning mazmunida xalqning xayot tarzi, ruxiyati, ma'naviyati, xalq odobi me'zonlari, kelgusi farovon turmush haqidagi orzu – o'ylari o'z aksini topgna. Davr sinovlaridan o'tgan ma'naviy va madaniy boyliklar mazmunan boyib, sayqallanib qadriyat darajasiga ko'tarilib kelmoqda. Shuning uchun ham har bir xalqning, millatning o'z tarixi, u bilan bog'liq qadriyatlari mavjud. Ana shu milliy qadriyatlar milliy o'zlikni anglashda muxim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir xalqning o'z tili, ma'naviyat va ma'rifati, tabiati, axloq – odob normalari, dini, e'tiqodi, tarixi, adabiyot va san'ati, madaniy yodgorliklari, o'ziga xos qadriyatlari, urf – odati, an'analari, ijtimoyi taraqqiyoti vash u kabilar millatning o'zligini tashkil qiladi.

Milliy o'zlikni anglash esa har bir millatning, elatning o'z tarixi, moddiy boyligi, jdini, madaniyati, adabiyoti, san'ti, axloqiy – ma'naviy xulq – atvori, xatti – xarakat me'zonlar, urf – odat va an'analarini mazmun va mohiyatan bilish, ulardan faxrlanish hamda ularni shakl va mazmun jihatdan boyitish, kelgusi avlodlarga yetkazish, shuningdek, ularni boshqa millatlarga namoyish etish ehtiyojining qudrati demakdir.

Qadimgi grek faylasufi Suqrot (er. av. 469-399): «O'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizlikdan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarini qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi» deb aytgan edi. Suqrotning bu don so'zlari o'zlikni anglashga undaydi.

3. BOSNLANG'ICH SINIF O'QUVCNILARIDA MILLIY G'URURNI SINGDIRISNNING SNAKL VA VOSITALARI

Har jihatdan yetuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqtai - nazardan kelib chiqqan holda, ma'naviy – ma'rifiy ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish va boshqarish o'qituvchilarning mahoratiga bog'liq. O'qituvchining mahoratiga shaxs ruhiyatini his etishi, ta'lim – tarbiya jarayonini yaxshi bilishi muhimdir. O'qituvchi faoliyatining asosiy obyekti o'quvchi bo'lib, u o'quvchining ma'naviy hayotini shakllantiruvchi mutasaddidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'ururni singdirishda va ularga tarbiya berishda o'quvchilar bilan suhbat, ma'ruza, bahs – munozaralar o'tkazish, xulq atvorni mashqlantirish, shaxsiy namuna ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish, rag'batlantirish, jazolash singari usullardan ta'lim jarayonida, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda oqilona foydalanishi zarur.

Qadriyatlarni o'quvchilarga uqtirishda o'qituvchining notiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi og'zaki illyustratsiyalardan jonli foydalansa, milliy tarbiyada ko'rsatmalilikka tayana bilsa, u o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi.

Milliy g'ururni singdirishda noan'anaviy usullardan foydalanish bugungi kunda keng imkoniyatlar yaratib berdi. Rivojlantiruvchi ta'lim o'qituvchining muammoli usulidan foydalanishda o'quvchilar tafakkurining mahsuldorligi va ularning mustaqilligi rivojlanadi.

Biz izlanishlarimizni milliy tarbiyani maktablarda bugungi kunda qanday holatda olib borilayotganligi, o'qituvchi va o'quvchilarning milliy qadriyatlar haqidagi tushunchasi darajasi va ularning munosabat darajasini aniqlashga bag'ishladik.

Kuzatishdan maqsad o'qituvchilarning o'quvchilarga milliy tarbiyani shakllantirishda qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish tajribalarini o'rganish va tahlil qilish edi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga milliy tarbiya berishda qadriyatlarimizning o'rnini bilish maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qildik.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur tushunchasini singdirish qachondan boshlanish kerak?
2. Yoshlarda milliy g'ururni singdirishda qaysi metodlardan foydalanish mumkin?
3. Yoshlarga milliy tarbiya berish qachondan boshlanishi kerak?
4. O'z tajribangizda milliy tarbiya mavzusiga e'tibor berasizmi?
5. Milliy qadriyatlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda Vatanga e'tiqod, milliy o'zlikni anglashga doir qanday tushunchalar, bilimlar berilishi lozim deb hisoblaysiz?
6. O'quvchi dunyoqarashini o'stirish, o'quvchilarni milliy tarbiyalashda qanday usul, yo'llarni qo'llash mumkin deb o'ylaysiz?

Savol – javobda ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari to'liq bo'masa – da, biz bergan savollarga javob berishga harakat qildilar, ammo shu narsa ma'lum bo'ldi – ki ba'zi o'qituvchilar bu masalaga jiddiy yondoshmaganlar, ular ko'proq o'quvchilarning savodxonligiga e'tibor berganlar.

Ko'pgina tajribali o'qituvchilar esa bu masala yuzasidan o'zlarining faoliyatlarida ijobiy natijalarga erishganlar.

Shu bilan birga o'rta maktabning 3-sinfida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy qadriyatlarini o'rganish jarayonida milliy tarbiya, milliy o'zlikni anglash, vatanga e'tiqod haqidagi tushunchalarini aniqlash maqsadida ular o'rtasida ham savol – javoblar, davra suhbatlari tashkil qildik. Ularga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Milliy g'urur nima?
2. Milliy qadriyatimiz bo'lgan qanday marosimlar, an'analarni bilasiz?

3. Bizning Vatanimizni dunyoga mashhur qilgan qanday buyuk ajdodlarimizni bilasiz?
4. Vatan nima?
5. Ota – onaga, qarindosh – urug'larga yoru – birodarlarga qanday munosabatda bo'lish kerak?
6. Oilangizda qanday urf – odatlarga rioya qilasiz?
7. Vataningizni dunyoga mashhur qilish uchun qo'lingizdan nimalar keladi?

Ushbu tajriba sinovimizda 53 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. Suhbatlarda ishtirok etgan o'quvchilarning 23tasi vatan haqida yetarli tushunchaga ega ekanligining guvohi bo'ldik, 20 nafar o'quvchining esa bu boradagi tasavvurlarining sayozligini kuzatdik. 10ta o'quvchining esa umuman yuqoridagi savollarimiz yuzasidan tushuncha va tasavvurga ega emasliklari ko'rindi.

Ma'lumki, ilmiy tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur, faxr – iftixor tuyg'ularini singdirish va Vatanga e'tiqodli insonlar etib tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning muhim vosita bo'la olishini pedagogik va psixologik ilmiy tajriba yo'li bilan tekshirib ko'rish va asoslash, milliy qadriyatlarimizni o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlar orqali milliy tarbiya berishga doir samarali ish usullarini qo'llashdir.

Boshlang'ich sinflar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tajribalarimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi tadbirlarni uyushtirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik: boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ma'naviy dunyoqarashlarini o'rganishdars va darsdan tashqari tadbirlarni o'ziga xos xususiyatlarini mazmunini aniqlash; bajarmoqchi bo'lgan ishlarning maqsadini belgilash; ta'lim va tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Milliy – ma’naviy qadriyatlarimiz ruhida yoshlarni tarbiyalashda mavjud barcha imkoniyatlardan foydalanishimiz zarur.

Ta’lim jarayonida buyuk ajdodlarimiz metosi, ularning hayoti va ijodi, qilgan qaxramonliklari to’g’risida ko’proq o’rganilsa, o’quvchilarning adabiyotga, Vatan tarixiga bo’lgan qiziqishini oshiradi, buyuk ajdodlariga nisbatan faxr tuyg’usini shakllantiradi, ularga munosib bo’lish hissini tarbiyalaydi.

Chunki dono allomalarimiz qoldirgan ma’naviy merosda barcha davrlar uchun kerak bo’ladigan ajoyib qarashlar, ibratli o’gitlar borki, ular bugungi taraqqiyotimiz uchun ham ahamiyatini yo’qotgan emas.

O’tmish davrlaridagi ta’lim – tarbiya jarayonini o’tganish, ijobiy tomonlarini bugungi ta’lim – tarbiya tizimiga tadbiq etish, salbiy tomonlaridan xulosa chiqarish milliy tarbiya berishga samarali ta’sir ko’rsatadi.

O’qituvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- O’zbekiston mustaqilligi tufayli umuminsoniy, milliy ma’naviy qadriyatlardan keng foydalanish.

- o’quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda o’zbek xalqining milliy urf – odatlaridan foydalanish;

- milliy qaxramonlarimiz bo’lgan ajdodlarimiz hayotini o’rganish, ularga munosib o’lish hissini shakllantirish;

- milliy g’ururni shakllantirishda qaratilgan tashviqot – targ’ibotchilik faoliyatini takomillashtirishga aloxida ahamiyat berish;

- o’quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirish mazmuni, ish shakllari va me’todlarini belgilab beruvchi pedagogik prinsiplar, ya’ni tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog’liqligi, jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko’rish;

- mashg’ulotlar jarayonida o’quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda maktab, oila va jamoatchilikning hamkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish;

- o’quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishni muntazam ravishda takomillashtirib borish;

- xalq ta'limi tizimining barcha bosqichlarida ma'naviy qadriyatlarning asosi hisoblangan insonparvarlik tarbiyasiga aloxida e'tibor berish;

Yuqorida ta'kidlangan tavsiyalarning natijali bo'lishida o'rta ta'lim maktablarining dasturlari mazmuniga milliy tarbiyani shakllantirishga oid aniq yo'alishlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'ururni singdirishning shakl va vositalari sifatida onalar allasi, otalar namunasi hamda ma'lum bir izchillikda oilada bolalar bog'chasida, maktabda, ta'lim va tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalari yordamida va gumanitar fanlar orqali singdirish eng yuqori natijalar beradi.

Darhaqiqat, an'analar, urf – odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati qadriyatlarning ajralmas qismidir. Yo'l boshchimiz I.A.Karimovning sa'y – harakatlari tufayli jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, milliy adriyatlarimizni tiklash, ularning umrboqiyligini ta'minlash borasida juda katta g'amxo'rliklar qilinmoqda. Shu amalga oshirilayotgan ijobiy va savobli ishlar, shuningdek, marosimlarning mazmuniga ham alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Bu esa mamlkatimiz kelajagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz vositasida ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taqlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari» kitobida aytganlaridek, «Inson ma'naviyatining, yuksak axloq va madaniyatining, go'zal, milliy an'analarini qayta tiklashning muazzam qatlamlari ochildi. Eng muhimi esa – inson va fuqaroning fikrlashi va dunyoqarashi o'zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'xtovsiz o'sib bormoqda». Albatta, bu o'rinda xalq an'analari, marosimlari, ular bilan bog'liq rasm – rusum, udumlarning ham tarbiyaviy ta'siri nihoyatda kattadir.

Xalqimiz o'zining xursandchiligini ham, xafaqonligini ham turli marosimlar, rasm – rusumlar, udumlar orqali namoyish qiladi. Jumladan, xalqimiz tomonidan o'tkaziladigan to'y – tantanalari, motam marosimlari, ular bilan bog'liq xilma – xil urf – odatlar fikrimizning dalilidir.

O'zbeklar qadimdan to'y turlariga boy xalq. Sunnat to'yi, nikoh to'yi, soch to'yi, Tish to'yi, beshik to'yi, birinchi qadam to'yi, fotiha to'yi, ellik, oltmish uch yoshlarni va undan ortiq yoshlarni nishonlash to'ylari, ramozon va qurbon hayitlarini keng nishonlab keladi.

To'y oilaviy bayram bo'lsada, u barcha qarindosh – urug', mahalla – kuy, do'stu – birodarlar bilan baham ko'riladi. U kishilarga hajihatlik, ahillik, mehr – oqibat, xayr – saxovot, imon – e'tiqod, mehmondo'stlik, insonparvarlik, do'stlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbek xalqining to'y marosimlari juda go'zal, mazmunan rang – barang, har bir mintaqaga o'tkaziladigan to'ylarning bir – biriga o'xshamaydigan xususiyatlari, rasm – rusumlari mavjud. Bu esa xalqimizning ma'naviyati qanchalik boy ekanligi, insonparvarligi, go'zal hayotga oshiqmandligi, mehmondo'stligi, shodu – xurramlikka moyilligidan dalolat beradi. Qadimda to'y – bazmlarda o'yin – kulgu, she'rxonlik, kurash, ko'pkari, askiyabozlik qilingan. Baxshilarning o'zaro o'tkazilgan bellashuvlari to'ylarga nafis va latif kayfiyat bag'ishlagan. Bu usul bilan to'y tantanalari qiziqarli, mazmunan boy, o'yin – kulga, shod – xurramlik bilan o'tkazilgan. Shuning bilan birga xalq milliy qadriyatlari targ'ib etilgan, sayqal topgan, avloddan – avlodga yetkazilgan. Shu yo'sinda xalqning, yosh avlodning ma'naviy madaniyati shikllantirib borilgan.

Marhumlarni dafn etish, ularni xotirlash bilan bog'liq marosimlar ham qadimdan shakllanib kelayotgan marosim, an'analardan hisoblanadi. Albatta, bulla o'z yaqin kishisidan judo bo'lgan kishini ma'naviy qo'llab – quvvatlash, ruhiy dalda berish, olamdan o'tib – ketgan avlod – ajdodlarni yodga olish, xotirlashdan iborat milliy qadriyatlardir.

Bu marosimlar bizga ajdodlarimizdan ma'naviy – me'ros sifatida yetib kelgan va ular shu kungacha o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biz bu qadriyatlarni o'zimiz keyingi avlodlarga yetkazishda o'z xissamizni qo'shmog'imiz darkor.

Sharq xalqlarining umr – boqiy, milliy – ma’naviy qadriyatlaridan biri Navro’z bayrami hisoblanadi. Navro’z sharq mamlakatlarining milliy umumxalq bayrami bo’lib, necha ming yillik tarixni o’zida mujassam etgan ulug’ bayramdir.

Navro’z – yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg’onishi bilan bog’liq Yangi kunning boshlanish bayramidir. Navro’z fors tilidan olingan bo’lib. «nav» - Yangi, «ro’z» - kun degan ma’nolarin anglatadi, ya’ni 21 – mart kecha va kunduzning tenglashishi, yangi yil sifatida nishonlanadi.

Navro’z juda qadimiy bayramdir. Uning juda qadimiy va navqiron ayyom ekanligini buyuk mutafakkir allomalarimiz o’z asarlarida asoslab berganlar. Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Umar Xayyomning «Navro’znoma», Firdavsiyning «Shoxnoma», Alisher Navoiyning «Sadi Iskandariy» asarlari Navro’z, uning paydo bo’lish tarixi, u bilan bog’liq urf – odatlar, rasm – rusumlar haqida muhim ma’lumotlarni beruvchi qimmatli manbaalardir. Shuningdek, Navro’z bayramining paydo bo’lishi Ogahiy, Bobur, Muqimiy, Mashrab, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodirabegim, Zebiniso va boshqa o’zbek adabiyotining buyuk dahalari muhabbat, do’stlik, poklik, mehnat, insonparvarlik ramzi sifatida ulug’laganlar.

Xalqning ahloqiy – ma’naviy qadriyatlari mujassam bo’lgan, ezgu niyatlar bilan tantana qilinadigan insonparvarlik, insonlarni ruhan birlashtiruvchi baxt va baxor bayrami – Navro’z munosabati bilan mamlakatlararo urush – janjallar to’xtatilgan, urishganlar yarashgan, gina – quduratlar unutilgan, ota – ona, keksalar, qarindosh – urug’lar, kasalmandlar sovg’a – salom bilan yo’qlangan, hamma joy saranjom – sarishta qilingan, maydonlarda sayllar, o’yin – kulgu, askiyabozlik, qo’chqor, xo’roz urishtirish, kurash, ko’pkari o’tkazilgan.

Navro’z yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash vositasidir. Navro’z odobnomasi yosh avlod uchun tarbiya maktabidir. Navro’z bayramidagi urf – odatlar, rasm – rusumlar yosh avlod tarbiyasida, milliy g’ururni, milliy o’zlikni anglashda juda muhimdir. Bayram tantanalarida kurash, chillik, ot o’yini, poyga, uzoqqa koptok otash, soqqa, bekinmachoq, varrak uchirish, tez aytish, eshak

mind, oq terakmi – ko'k terak, kelin – kelin, toy – toy, dehqon bobo va boshqa milliy o'yinlarni qiziqib o'ynaydilar. Shuningdek, xo'roz, it, bedana, qo'chqor, ho'kiz urishtirish kabi o'yinlar hayvonot olamiga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol, lapar, mushoira, matal, latifaertak, doston va boshqalar ko'p aytish bo'yicha ko'rik – tanlovlar uyushtiriladi. Bayram munosabati bilan uyushtirilgan ushbu tadbirlar yoshlarda milliy ong va tafakkurning shakllanib borishida muhim vosita hisoblanadi. Yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol bo'lib shakllanishida, milliy qadriyatlarimizni avloddan – avlodga o'tib borishida ijobiy rol o'ynaydi.

Mustaqilligimizdan so'ng Navro'z bayrami dunyo bo'ylab o'z tarovatini namoyon etmoqda. Shuning uchun ham bu bayram xalqchilik, erkinlik, xalqlar do'stligi, baynalminalchilikni targ'ib etuvchi marosim ruhi oldi.

Shunday qilib, Navro'z Sharq xalqlarining qadimiy bayrami bo'lib, u muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U har bir kishini insonparvarlikka, mehr – muruvvatga, bag'ri kenglikka, saxovotga, go'zallikka, mehnatsevarlikka, imon – e'tiqodga. Ezgulikka da'vat etadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yuksak ma'naviyat, odob – axloq, iymon, e'tiqod, yaxshi xulq – atvvor insonda o'z – o'zidan paydo bo'lmas ekan. Ma'naviyat insonga xos xususiyat bo'lib, uning jamiyatlardagi hayoti, tarbiya, mehnat, hayot tajribasi jarayonlarida shakllanib, sayqal topib, ruhiy mohiyatga aylanadi. Yoshlarga beriladigan tarbiya qancha ertaroq boshlansa, uning samarasi shuncha kuchli bo'ladi.

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf – odatlar mavjud, Ular bola yoshligidan, oiladan boshlanadi. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota – onani o'rindan turib kutib olish, ularga ham doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr va shavqat, yaqinlariga, mahalladoshlariga, do'st – birodarlaridan yordamini ayamaslik bunga misol bo'ladi.

O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru – otalarni, nuroniy onalar va buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamini ayamaslik o'zbek xalqining an'anaviy qadriyatlaridan bo'lib, u o'zbek oilasida yoshlikdan bolalar ongiga, qon – qoniga, vujudiga singdirib yuboriladi.

XI asrning ulug' shoiri, donishmandi, Yusuf Xos Hojib qariyalarni hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlash joizligini uqtirib shunday degan edi.

Ulug'qa yetishsa kichik hurmati,

Ulug' ham kichikka hurmat ko'rsatur.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlaridan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan ajoyib qadriyatlaridan yana biri ota – onani yaksak darajada e'zozlash, izzat – ikromlari, hurmatlarini joyiga qo'yishdan iboratdir.

Ota – onani qadrlash, ularning tengsiz, o'lchovsiz xizmatiga sodiq bo'lish, duolarini olish, bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy aytganlaridek, «ota – onani hurmat qilish, farzandlar uchun majburiyatdir» Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «odob» so'zizagi «dol» kabi qomatingni ham qil.

Kattalarga izzat – ikrom, kichiklarga mehr – shavqat, ota – onalarga e'zoz, farzandlarga mehr – sadoqat – bular insonni inson qilib turadigan axloqiy va ma'naviy qadriyatlarimizdan hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlar ta'lim – tarbiyasiga milliy, ma'naviy qadriyatlarni joriy etish asosiy o'rin tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yoshlarimizda milliy g'urur, faxr va iftixor tuyog'ularini singdirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Keyingi yillarda ta'lim – tarbiya sohasida ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliylikimiz tiklanib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari, qirralari ochildi.

Biz lib borgan izlanishlarimizga tayanib, quyidagi muloxazalarimizni bayon qilish imkoniga ega bo'ldik:

1. Qadriyatlar jamiyat hayotidagi taraqqiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tarixiy taraqqiyotning mahsuli, jamiyat ma'naviy kamolotining muhim omilidir. Qadriyatlar o'tmish Bilan kelajakni tutashtiruvchi «oliy ko'pri» dir.
2. Qadriyatlarni turli asoslarga tayanib, klassifikatsiyalash mumkin. Bu esa qadriyatlarning ko'p qirraliligidan nishonadir. Qadriyatlarning ko'plab turlari mavjudki, ularni o'rganish, yaratish, keng xalq ommasi oldida ularni tadbiq qilmoq lozim.
3. Milliy qadriyatlar millatning mohiyatini, muayyan ijtimoiy etnik birlik ekanligini belgilab beradi. Har bir millat o'z qadriyatlarini rivojlantirishi, ularning umrboqiyiligini ta'minlashi darkor.
4. Ehtiyojlarni yuzaga keltirmasdan hyech bir qadriyatni xalqqa singdirib bo'lmaydi.
5. Qadriyatlar qanchalik bir – biriga yaqinlashib ta'sir ko'rsatmasin, ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezon milliy qadriyatlar bo'lib qoladi.
6. Milliy ruhda shakllantirishda tarbiya berishdan oldin yoshlarda milliy ong, milliy g'urur, Vatan tuyg'usi shakllantirilishi kerak; ajdodlarimiz haqida namunalar keltirib, ularga munosib avlod bo'lish tuyg'usini shakllantirish kerak; oilaviy urf – odatlar, an'analar bo'lmish ota – onaga yuksak hurmat, kattalarni e'zozlash, kichiklarga izzatda bo'lish kabi axloqiy fazilatlarini yanada takomillashtirish kerak.

7. Vatanga e'tiqod, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi muqaddas tushuncha ekan, bu kabi his – tuyg'ularni boshlang'ich sinflardayoq tarbiyalab borish o'qituvchi va pedagoglarning asosiy vazifasi bo'lishi lozim.
8. Qadriyatlar milliy tarbiya vositasi ekan, ulardan foydalanish o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga, mahoratiga bog'liq. Shuningdek, ijtimoiy tarbiya qatnashuvchilari ota – onalar, mahalla oqsoqollarining ham umumiy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi.
9. Milliy qadriyatlarni oqilona va xolisona o'rganish ma'naviy yuksalishning muhim omilidir
10. Milliy madaniyat va an'analarga, milliy qadriyatlarga hurmat Bilan qarash millatning o'ziga nisbatan e'zozli munosabatning Vatanga sadoqatning mustaxkam garovidir.

Bu boradagi tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirsakgina, milliy tarbiyashkнослиgimizning poydevorini mustahkam yaratgan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, bizga ota – bobolarimizdan qoldirilgan boy ma'naviy merosni asrab – avaylash, uni zamonaviy ilm – fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, milliy tarbiyalab, ularning bunyodkorlik faolligini oshirish va mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent; O'zbekiston, 1992 yil – 62 bet.
2. Karimov I.A. «Istiqlolva ma'naviyat» - T.; O'zbekiston 1994 y. 160 b.
3. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» - T.; O'zbekiston 1994 y. 379 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taqlid, barqarorlik shartlari, - T.; O'zbekiston 1997 y. 326 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, - T.; Sharq. 1998 y. 78 b.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q – T.; Sharq 1998 y. 31 b.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi, - T.; Sharq 1998 y. 31 b.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz - T.; O'zbekiston 2000 y. 168 y.
9. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch», - T.; Sharq 1998 y. 31 b.
10. Alisher Navoiy Mahbub – ul qulub – T.; Kamalak 1986 y. 150b.
11. Ashurov M.O. O'zbek xalqi tarbiya tizimi – Samarqand Ziyokor, 2003 y., 6-son, 16-24 b.
12. Yo'ldosheva Saodat Xalq urf – odatlar va an'analari. – Toshkent ijod dunyosi nashriyot uyi. 2003 y. 3-22 b.
13. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – Toshkent, 1997.
14. Mustaqillik – izohli – ilmiy ommabop lug'at. T.; .; Sharq 1998 y. 3, - 133 b.
15. Musurmonova O. O'qituvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: 1993.
16. Musurmonova O. Hayot va turmush dasturi. – T.: O'qituvchi, 1993
17. Otamuratov S., Husanov S., Ramatov J., Ma'naviyat asoslari – T.; Xalq merosi 2002 y. 212b.
18. Ochil Safo Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari – T.; O'qituvchi, 1997 y. 3-bet.
19. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. – Toshkent, 1997 y. 29 avgust, 20-29 b.
20. Tulenov J.. Qadriyatlar falsafasi – T.; O'zbekiston 1998y. 5 – 108b.
21. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi – mualliflar K.Hoshimov, S.Ochil – T.; O'qituvchi, 1995 y. 164b.
22. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya – T.; Fan. 1995y. 118b.
23. Shu aziz Vatan barchamizniki T.; universitet 1995y. 23 b.
24. <http://www.psixologiya.ru>
25. <http://www.psixologiya.uz>
26. <http://www.pedagogika.uz>
27. <http://www.ziyonet.uz>

ILOVA

